

Avtotransportlar harakatlarini cheklash yoki taqiqlash

O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Avtomobil yo'llari to'g'risida" (O'RBQ ?-117-son. 2007-yil 2-oktyabr)

16-modda. Yo'l tashkilotlarining huquq va majburiyatlari:

Noqulay ob-havo-iqlim sharoitlarida, tabiiy ofatlar, yong'inlar yuz berganda, avtomobil yo'li ko'tarish qobiliyatini yo'qotganda va boshqa shunga o'xshash hollarda, shuningdek ta'mirlash-qurilish ishlari olib borilayotganda yo'l tashkilotlari mahalliy davlat hokimiyati organlariga bu haqda bildirgan, avtomobil yo'llaridan foydalanuvchilarni ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilish bilan xabardor qilgan hamda tegishli belgilar o'rnatgan holda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati va O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo'linmalari bilan birgalikda transport vositalari harakatini cheklash yoki taqiqlash huquqiga ega.

Yo'l tashkilotlari avtomobil yo'llarining soz holatda bo'lishini, ulardan transport vositalari muttasil va xavfsiz o'tishini ta'minlashi shart.

Respublika xududida ta'mirlash-qurilish ishlari olib borilayotganda transport vositalari harakati vaqtincha cheklangan yoki taqiqlangan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari to'g'risida M A
' L U M O T